

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**7-9-SINFLARDA O‘ZBEK TILIDAN GAPIRISH (SPEAKING)
KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI O‘QUV TOPSHIRIQLARI TUZISH**

Yusupova Gulora Ataxanovna

P.f.f.d.(PhD) dotsent,

NDPI “O‘zbek tili” kafedrası o‘qituvchisi

Polvonova Shahnoza Faxriddinovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI doktranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada 7-9-sinflarda o‘zbek tilidan gapirish (speaking) ni rivojlantiruvchi mashqlar tizimi, nutq va muloqot shakllari, monolog va dialogik nutq va ularni o‘rgatish masalalari yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** gapirish, o‘qish, tinglash, yozish, monolog, dialog, og‘zaki nutq.*

***Annotation:** This article covers the system of exercises that develop Uzbek speaking (speaking) in grades 7-9, forms of speech and communication monologue and dialogic speech and their teaching.*

***Key words:** speaking, reading, listening, writing, monolog, dialoc, oral speech.*

***Аннотация:** В данной статье рассмотрена система упражнений, развивающих узбекскую речь в 7-9 классах, формы речи и общения, монологическая и диалогическая речь и их преподавание.*

***Ключевые слова:** говорить, чтение, слушаю, написать, монолог, диалог, устная речь.*

Jahonda ishlab chiqarish hamda ta’limning integratsiyalashuvi jarayonida yosh avlodning kreativligini rivojlantirish, ta’limda ilg‘or texnologiya va dasturiy ta’lim vositalaridan keng foydalanish, o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Bugungi kunda ta’limda yoshlarga qaysidir tilni mukammal egallash uchun 4 ta asosiy boshqichdan: o‘qish (reading), tinglash (listening), yozish (writing) va gapirish (speaking) bosqichlaridan o‘ta olishi kerak degan talab qo‘yilmoqda. O‘quvchi o‘z fikrini to‘liq bayon eta olishi uchun tilni mukammal bilishi, o‘qib tushuna olishi, o‘z fikrini tiniq ifodalab yoza olishi va xuddi shu kabi nutqiy tamonlama ham o‘z ustida ishlab mustaqil, ravon gapira olishi kerak. Yuqoridagi talablar nafaqat chet tillariga nisbatan, balki o‘zbek tiliga ham qo‘yilgan. O‘quvchining o‘zbek millatiga mansub yoki O‘zbekiston hududida yashashi uning bu til imkoniyatlarini to‘liq bilishi ma’nosini anglatmaydi. Bugungi kunda o‘quvchilarimiz orasida eng ko‘p kuzatilayotgan holatlardan bittasi - bu og‘zaki nutq yetishmovchiligidir. Ya’ni o‘quvchi o‘z bilimlarini nutqida to‘liq aks ettira olmayotgani, ma’lum bir mavzu yuzasidan keng va atroflicha gapira olmayotganidir.

Gapirish boshqa nutq faoliyati turlari bilan chambarchas bog‘langandir. O‘quvchi tinglab tushunish malakasini qanchalik yaxshi egallagan bo‘lsa, gapirish

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ham shuncha tezlik bilan rivojlanadi. O‘quvchi tinglash paytida nutq mazmunini to‘liq tushuna olmasa, ma’lumot berishi, javob qaytarishi qiyin. O‘qish ham gapirish bilan aloqador. O‘quvchi o‘qigan ma’lumoti orqali gapiradi, ma’lumot beradi. U qanchalik ko‘p o‘qisa, shuncha gapirish uchun ma’lumot to‘playdi. O‘qish - gapirish uchun ma’lumot manbai hisoblanadi.¹ O‘quvchi yozuv orqali o‘qigan, tinglagan va gapirgan materiallarini, ma’lumotini yozma ifodalaydi. Yozish ham gapirish uchun manba sifatida ma’lumotni esda saqlab qolishga yordam beradi. Demak, gapirish faoliyati boshqa nutq faoliyatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Gapirish - biror fikrni izoh etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo‘llashdan iborat. Xalqimiz orasida “Avval o‘yla, keyin so‘yla” deylishi bejiz emas. “O‘yla” qismida fikr paydo bo‘lishi, “so‘yla” qismida esa uni nutq harakat sezgisi (analizatori) orqali “bayon etish” tomonlari nazarda tutiladi. Gapirish uch bosqichdan iborat nutqiy faoliyatdir. Dastavval, gapirishga moyillik (motivatsiya) paydo bo‘ladi, nutqiy harakatni bajarishga mayl paydo bo‘lsa, biror axborot berish, savolga javob qaytarish yoki nonutqiy harakat (masalan, iltimos, buyruq)ni ijro qilishga kirishiladi. Gapirishning ushbu qismida aytish niyati paydo bo‘ladi. Ikkinchi bosqich- fikrimizni izoh qilish qismida esa analiz, sintez, amallari ishga tushadi. Bunda bizga xotira zaxiramiz yordam beradi. Gapiruvchi xotirada tayyor turgan so‘zni yoki grammatik birlikni tanlaydi, odatda ona tili hodisalari xotirada tayyor turadi. Gapirishning yuqoridagi bosqichlaridan so‘ng uchinchi bosqich - fikrni bayon etish, talaffuz qilish bosqichiga o‘tiladi. Uchala qismning amal qilishi nutq faoliyati turlaridan gapirishni yuzaga keltiradi.²

Gapirish ikki xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: monologik nutq ham dialogik nutq ko‘rinishlarida bo‘ladi. Monologik nutq bir kishi tomonida amalga oshiriladi. U rejali, qisman tayyorlangan bo‘ladi. U mantiqiy bog‘langan bo‘lib, ma’lum bir matn asosida olib boriladi. Monologik nutq ta’sirchan, his-hayajonli, kimgadir yoki nimagadir qaratilgan bo‘lishi mumkin. Dialogik nutq esa birdan ortiq bajaruvchi tomonidan bajariladi. Dialogda javob qaytarish zarurati kuzatiladi. U faqatgina savol-javobdan iborat bo‘lmasligi ham mumkin, unda har bir so‘zlovchi ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan holda fikrni davom ettiradi.³

Bugungi kunda maktablarimizda ta’lim-tarbiya olayotgan yosh avlodga e’tibor juda kuchli. Har bir o‘quvchi o‘rganilib, uning fanlarni o‘zlashtirishi, xulqi, yosh psixologiyasi hisobga olgan holda alohida ishlashga harakat qilinmoqda. 7-9-sinf

¹ Jamol Jalolov. Chet til o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 2012

² Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. T.: Sharq, 2003

³ Mirzo Tursunov, Sayfiyeva Madina. Gapirishni o‘rgatishda qo‘llanadigan mashqlar tizimi va zamonaviy texnologiyalar. –B. 75-76.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o‘quvchilari kitoblar, badiiy asarlar yoki darslik orqali bilimlarini yanada boyitib boradi, insho, ijodiy bayon kabi nazorat turlarini erkin va ijodiy tarzda yoza oladi. Biroq fikrlarini og‘zaki nutq orqali bayon etish jarayonida qolipda belgilangan so‘zlardan chiqqan olmaslik yoki alohida bir mavzu yuzasidan fikrlarini bayon etishda, monologik nutq tayyorlash jarayonida qiyinchiliklarga duch kelish holatlari kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ta‘lim jarayonida faqat grammatika bilan cheklanib qolgan darsliklar, o‘quvchi psixologiyasidagi xato qilib qo‘yishdan qo‘rqish va tortinchoqlik kabi xususiyatlardir. Bugungi kunda yangi avlod darsliklari ayni shu muammoga yechim topdi. Endi o‘quvchilar yangi avlod darsliklarida faqat grammatika bilan cheklanib qolmasdan, fikrlashga, kreativlikka va o‘z fikrini ravon ifodalashga o‘rgatuvchi o‘quv topshiriqlarini bajaradilar va bu ijobiy samara beradi.

Ta‘limda til o‘rgatish, to‘g‘rirog‘i, har qanday faoliyatni o‘rgatish paytida mashq markaziy o‘rinni egallaydi. Tayyorlovchi va nutq mashqlari gapirish ko‘nikma va malakasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini o‘taydi. Bunda suhbat metodi ham asosiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot metodlaridan suhbat eng qadimiy va ko‘pchilik fanlarda tarqalgan yordamchi metoddir.⁴ Nutqiy mashqlarga misol tariqasida axborot manbalari (rasm, kino, film va matn kabi) dan foydalanib fikrlarini bayon etish, o‘rganilgan mavzuga asoslanib o‘z fikrlarini og‘zaki bayon qilish, ona tili darsligidagi hikoya, rasm, ovozsiz film yoki axborot asoslariga tayanib gapirish, oldin ko‘rgan yoki o‘qigan, hayolidan o‘tkazgan fikr mulohazalaridan kelib chiqqan holda gapirish kabi mashqlarni keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda keng o‘rganilayotgan ingliz tili darslarida dastlabki 10 daqiqa tinglab tushunish va gapirish mashqlari orqali o‘tkaziladi.⁵ Bunday og‘zaki nutq mashg‘uloti o‘tkazishdan maqsad o‘quvchining yodidan ko‘tarilgan so‘z, ibora namunalarini esga tushirish, gapirish uchun tayyorlanish va ularni muhitga moslashtirishdir. Ushbu usulni ona tili darslarida ham samarali qo‘llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida mavzu e‘lon qilingandan so‘ng mavzuga kirmasdan oldin biror fikr o‘rtaga tashlanadi. Bunda qandaydir maqol yoki ibora eshittirish sifatida qo‘yib eshittirilishi yoki o‘rtaga tashlangan mavzu fikrlashga undaydigan rasm ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin. So‘ngra o‘quvchilardan eshittirish yoki fikr yuzasidan o‘zlarining fikr mulohazalari so‘raladi. Bu darsning qiziqarliligini yanada oshiradi va o‘quvchilarning e‘tiborini jalb qilishga ham yordam beradi. Bu mashq o‘quvchilarning fikrlash va gapirish ko‘nikmasini rivojlantirib, davomiyligi 10 daqiqadan oshmasligi kerak bo‘ladi. Misol tariqasida, 8-sinf ona tili darsligida “So‘z birikmasi” mavzusida “Internet va biz”, “Men va oilam”, “Agar telefon bo‘lmaganda...” kabi mavzulardan

⁴ Jamol Jalolov. Chet tili o‘qitish metodikasi. T-O‘qituvchi, 2012.

⁵ Harmer Jeremy. The Practice of English language Teaching. Cambridge, 2007

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

birortasi o‘rtaga tashlanadi. Bu mavzular ayniqsa yosh avlod uchun qiziqarli mavzu bo‘lganligi uchun ularning e‘tiborini jalb qiladi. “Internet va biz”- *Bugungi kunda internetsiz hayotimizni umuman tasavvur qila olmaymiz. Internet orqali nafaqat ish hayotimizdagi bir qancha muammolarimizni, ish hujjatlarimizni, balki uydagi kundalik yumushlarni ham bimalol bajarishimiz mumkin. Lekin internetning foydasi qanchalik ko‘p bo‘layotgan bo‘lsa, uning shunchalik ko‘p salbiy tomonlariga ham duch kelmoqdamiz. Kunimizdagi asosiy muammolardan biri internetdan to‘g‘ri va oqilona faoydalana olishdadir. Yosh avlodni ham bunga o‘rgatish vazifamizdir.*

“Agar telefon bo‘lmaganda” - *Hozirgi kunda telefonlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Ularsiz hech bir yumush yoki topshiriq o‘z vaqtida bitmaydigandek ko‘rinadi. Aslida ham shunday, zamonamiz rivojlanib borgani sari telefonlarga yanada bog‘lanib qolmoqdamiz. Bu vaziyatda eng katta mas‘uliyat, albatta, yana kattalarga tushadi. Chunki kattalar qatorida yosh avlod kelajakiga ham “telefonlar hujumi” xavf solmoqda.*

“Men va oilam” – *Men oilada katta farzandman. Oilamizda beshta kishi turamiz. Uyimizda dadam, oyim ham ishlaydilar. Dam olish kunlari oilamizda bayramga aylanib ketadi. Men va ukalarim ota-onam uchun juda qadrligimni his qilaman. Biz shunday imkoniyatlarga to‘la jamiyatda yashayotganimizdan xursandmiz. Shu kabi fikr-mulohazalar o‘smir yoshidagi o‘quvchilar uchun qiziqarli hisoblanadi va o‘quvchilar bunday holatlarda o‘z fikrlarini bayon etishni judayam xohlashadi. Mulohaza uchun o‘rtaga tashlanadigan fikr o‘quvchi va jamiyat hayotiga oid bo‘lishi yanada samaradorlikni oshiradi. Ayni shu kabi qiziqarli va munozarali mavzular boshqa sinf o‘quvchilari uchun ham tanlanishi mumkin.*

Mavzu yuzasidan o‘quvchilarning fikr-mulohazalari eshitiladi va o‘qituvchi tomonidan esa ular to‘g‘irlanib, kamchiliklar to‘ldirilib xulosalanadi. Shundan so‘ng asosiy mavzuga kirishiladi. Dars mashg‘ulotlari davomida bunday mashqlardan davomiy foydalanib borish o‘quvchi og‘zaki nutqi rivojlanishida juda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi munosabatni ham yaxshilash bilan birga o‘quvchiga erkin fikrini ayta olish imkonini yaratadi. Dars mashg‘ulotlarida o‘z fikrini bimalol bayon etib borgan o‘quvchi keyinchalik xohlagan bir mavzu yuzasidan qiynalmasdan fikrlarini bayon eta oladi. Sinfda so‘zlash uchun doimo vaqt va makon yaratilishi kerak. O‘quvchilar suhbatlar va munozaralarga odatlanib, uni tabiiy holat sifatida qabul qilishlari uchun ma‘lum bir tartib paydo bo‘lishi kerak. Chunki darsliklardagi dialoglar suhbatlarni sun‘iy ko‘rinishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarni “noto‘g‘ri gapirish”, “xato fikrlash” degan tushunchalardan yiroqlashtirish lozim. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida to‘siqlar emas, balki iliq do‘stona munosabat shakllangan taqdirda ijobiy natijaga erishish mumkin.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari
2. E. Ergashev. Chet til o‘qitish jarayonida texnika vositalaridan foydalanish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1984
3. Atakhanovna, Y. G., & Azada, A. (2021, May). FEATURES OF THE USE OF MIXED EDUCATION IN UZBEK LANGUAGE CLASSES. In E-Conference Globe (pp. 77-80).
4. Ataxanovna, Y. G., Tajimuratovna, X. M., & Menglibayevna, B. S. (2023). ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KONIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. SCIENCE TIME JOURNAL, 1(3), 42-49.
5. Юсупова, Г. А. (2020). ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИДА АРАЛАШ ТАЪЛИМДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 100-104).
6. Harmer Jeremy. The Practice of English language Teaching. Cambridge, 2007
7. Atakhanovna, Y. G. (2020). ON THE CREATION OF EDUCATIONAL CONTENT AND THE PECULIARITY OF ITS USE FOR MISCELLANEOUS LEARNING IN THE LESSONS OF THE UZBEK LANGUAGE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(2), 58-65.
8. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. T.: Sharq, 2003
9. Jamol Jalolov. Chet til o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 2012